Ikkinchi bosqich o'z ichiga 1995-1998-yillarni oladi. 1995-yili aprel oyida Markaziy bank Jahon banki mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi banklararo to'lov tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan xalqaro tanlov tender e'lon qildi. Markaziy bankda tashkil etilgan elektron to'lov tizimini yaratish bo'yicha tuzilgan ishchi guruhi elektron to'lov tizimi texnologiyasini yaratdilar. Eski tizim 1995-yil, 19-avgustdan boshlab yangi texnologiya bilan almashtirila boshlandi. Bu paytga kelib Markaziy bank tizimida hisob-kitob markazlari tashkil etildi va tijorat banklariga elektron to'lov bo'yicha xizmat ko'rsatila boshlandi. Yangi texnologiyaga o'tila borishi sababli yilning oxirigacha respublikada 2 tizim: elektron pochta va elektron to'lov tizimlari ishlab turdi. Yil oxiriga kelib esa barcha tijorat banklari Markaziy bankning hisob-kitob markazlari, kliring markazlari elektron to'lov tizimiga qo'shildi.

#### Uchinchi bosqich

1998-yil O'zbekiston Respublikasida to'lov tizimiga o'tishda uchinchi bosqich yili bo'ldi. Markaziy bank bilan Jahon banki o'rtasida 1998-yil dekabr oyida "Respublika moliya sohasini rivojlantirish" uchun zayom ajratish to'g'risida shartnoma imzolandi.

#### To'rtinchi bosqich

To'rtinchi bosqich 2002-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davr mobaynida davom etdi. 2002-yilda to'lovlarni real vaqtda o'tishini ta'minlash va tijorat banklariga yagona vakillik hisobvarag'i orqali xizmat ko'rsatish bo'yicha texnologiya tanlanib, ushbu bo'yicha texnik topshiriq, ishlab chiqildi va banklararo to'lovlarni yagona vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazish hamda banklarda axborotlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha dastur yaratildi. 2004-yili qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentabrda qabul qilingan "Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli Qarori bilan ushbu tizimni kengaytirish borasidagi ilk reja ko'rsatkichlari, shuningdek to'lovlarni plastik kartochkalar orqali qabul qilish terminallari bilan jihozlanadigan ob'ektlar ro'yxati tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, mazkur qarorga muvofiq mamlakatda Yagona umumrespublika protsessing markazi tashkil etildi. Mazkur qarorga muvofiq, barcha tijorat banklari plastik kartochkalar tizimida ish olib borilishiga zamin yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarori bilan respublika "Elektron hukumat" tizimining kompleks axborot tizimlari tarkibiga Markaziy bankning "Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash" loyihasi ham kiritilgan bo'lib, mazkur Kliring tizimi amaliyotga tatbiq etildi. Shu bilan birga, „O'zkart“ banklararo chakana to'lov tizimi faoliyatini tartibga solish va uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, Markaziy bank huzuridagi Axborotlashtirish Bosh markazida "Banklararo universal netting axborot tizimi"

dasturiy majmuasi ishga tushirilishi munosabati bilan „O‘zkart“ tizimida Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining Banklararo hisob-kitob markazidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Hisob-kitoblar markaziga o‘tkaziladi.

2015-yildan boshlab to‘rtinchi bosqichning yangi davri boshlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3945-sonli Qaroriga asosan Milliy banklararo protsessing markazi 2018-yilning IV-choragida tashkil etildi va „Humo“ to‘lov tizimi 2019-yilning I-choragidan boshlab ishga tushirildi. To‘lov tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar bilan bir qatorda, uning me‘yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini, xalqaro me‘yor va qoidalarni chuqur o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni ishlab chiqildi va 2019-yil 1-noyabrda tasdiqlandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki hozirgi kunda yurtimizda to‘lovlarni amalga oshirish juda qulay Jahon standartlariga javob bera oladi, qolaversa mamlakatimizda to‘lov tizimini rivijlantirishning chora tadbirlari ko‘rilmoqda. Hozirgikundagi O‘zbekistondagi mavjud to‘lov tizimlari click, apelsin, anor, oson.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)

2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank’s General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)

5. Wikipedia.uz

6. LEX.UZ-O‘zbekiston qonunchiligi

7. www.cbu.uz-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVOH DAXLSIZLIGINING AYRIM MASALALARI

**Rayxon Ibragimova**

*Toshkent davlat yuridik universiteti, Xususiy huquq fakulteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada guvohlarning daxlsizligi huquqi tushunchasi, uning vujudga kelish asoslari hamda muayyan sohaga doir turlari muhokama qilinadi. Fuqarolik protsessida guvohlik berishda guvohni daxlsizligining mazmuni bo'yicha tadqiqotchi va olimlarning fikrlari bayon etilgan. Guvohning ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqi, shuningdek, ayrim shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishni taqiqlash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar :** *daxlsizlik, guvohning immuniteti, ko'rsatma berish.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ СВИДЕТЕЛЕЙ В  
ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ

**Райхон Ибрагимова**

*студентка Ташкентского государственного юридического университета,  
факультета частного права.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие права на неприкосновенность свидетеля, основания его возникновения и виды, относящиеся к конкретной сфере. Представлены мнения исследователей и ученых о содержании иммунитета свидетеля при даче показаний в гражданском процессе. Право свидетеля отказаться от дачи показаний, а также вопросы запрета допроса отдельных лиц в качестве свидетелей анализируются с научно-теоретической точки зрения.

**Ключевые слова:** *неприкосновенность, иммунитет свидетеля, свидетельские показания.*

CERTAIN ISSUES OF WITNESS PRIVACY IN CIVIL PROCEEDINGS

**Raykhon Ibragimova**

*Student of Tashkent State University of Law, Faculty of Private law.*

**Abstract:** This article discusses the concept of the right to the immunity of witnesses, the basis of its emergence, and the types related to a specific field. The opinions of researchers and scientists on the content of the witness's immunity in testifying in civil proceedings are presented. The right of the witness to refuse to testify, as well as the issues of prohibiting the questioning of certain persons as witnesses, are analyzed from a scientific and theoretical point of view.

**Keywords:** *inviolability, witness immunity, testimony.*

Bilamizki, odil sudlovni faqat sud amalga oshirar ekan, sud protsessida amal qilish lozim bo'lgan qoidalar tizimi mavjud bo'lib, qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi. Ahamiyatli jihati shundaki, odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslar doirasi ham belgilangan. Ushbu shaxslar yordamida dalil va isbotlash vositalarga aniqlik kiritish va huquqiy asoslantirilgan hal qiluv qarorlarini qabul qilishga muvaffaq bo'linadi. Ushbu shaxslar qatorida guvoh o'ziga xos ahamiyat kasb etishi bilan fuqarolik protsessida muhim o'rin egallaydi.

Alohida ta'kidlashimiz lozimki, guvoh ko'rsatma berish asosida voqelikka yoki ma'lumotlarga egaligi holatidan kelib chiqib xabar berish ya'ni ko'rsatma berish funksiyasini amalga oshiradi. Muhimi, guvoh qonun doirasida o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi guvohning shaxsiy hayoti va kelgusidagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, uning odil sudlovga ko'maklashishi shaxsni xavf ostida qoldirmasligi ham dolzarb masala sanaladi. Aksincha holatda esa, guvohga mutanosib talablarga rioya etilmasligi muammoli masalani hal qilish yoxud qaror qabul qilishda yanglish choralar ko'rilishiga ham olib kelmasligi zarurligini qayd etishimiz darkor. Shu sababdan ham guvoh daxlsizligi, guvohning immuniteti masalalariga alohida yondashgan holda tahlil etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga<sup>9</sup> binoan, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Ushbu huquqiy asosdan kelib chiqadiki, guvoh ayrim holatlarda guvohlik berishi shart emas. Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga<sup>10</sup> ko'ra, ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi. Shu jumladan, guvoh o'z immunitetiga ega bo'lgan holda muqim statusga ega bo'ladi. Ya'ni guvohning daxlsizligi uning sud protsessidagi ishtiroki uchun huquqiy himoya sifatida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Maqolada aynan guvohning immuniteti tushunchasiga aniqlik kiritib olishimiz muhimdir.

“Immunitet” atamasi lotin tilidan tarjima qilinganda “bir narsadan ozod qilish” ma'nosini anglatadi. Yuridik ma'noda esa immunitet muayyan qoidalarga bo'ysunmaslikning mutlaq huquqi sifatida talqin etiladi. Guvohlar daxlsizligi instituti sud protsessida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan protsessual kafolatlardan biridir.

“Guvoh immuniteti” atamasi uzoq vaqtdan beri fanga kiritilgan hamda nazariy muomalada bo'lib, yuridik adabiyotda keng qo'llaniladi, ammo unga olimlar tomonidan munosabat va qarashlar noaniq bo'lgan va bugungi kunda aynan fuqarolik protsessida ushbu tushunchaning qonunchilik normasida aks etmasligi bahsli munozarani yuzaga keltiradi.

F. Agayev va V.N. Galuzo<sup>11</sup> immunitetni “sud ishini yuritishning maxsus (murakkab) tartibi, Rossiya va chet el fuqarolarining ayrim toifalari uchun sud protsessining umumiy tartibidan istisnolar va maxsus huquqiy imtiyozlarni

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi.

<sup>11</sup> Агаев Ф.А., Галузо В.Н. Иммуни́теты в российском уголовном процессе. – М.: ТЕИС, 1998. 135 с.

belgilashda ifodalangan” deb tushunadi. Bunday imtiyozlar ushbu shaxslarning maxsus huquqiy maqomidan kelib chiqadi. Guvohlarning daxlsizligi muammosiga advokatlar tomonidan katta qiziqish bildirilganiga qaramay, uning mazmuni bo’yicha haligacha konsensus mavjud emas.

V.G. Dayevning fikricha<sup>12</sup>, guvohning daxlsizligi ma’lum shaxslarni guvoh sifatida so’roq qilishni taqiqlash va ko’rsatuv berishdan bosh tortish huquqini ham qamrab oladi. Shuningdek, xuddi shunday pozitsiyani N.Y.Volosova qo’llab, u guvohning daxlsizligi “o’ziga, turmush o’rtog’iga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko’rsatma bermaslik huquqini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui”<sup>13</sup> sifatida tavsiflaydi.

D.Y.Xabibullayev fikriga ko’ra, guvohning daxlsizligi faqat shaxsning o’ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqi sifatida tor ma’noda tushunilmasligi kerak. Qonun ushbu tushunchaga ta’rif berishda sudya, advokat va boshqa shaxslarni so’roq qilishni taqiqlashni ham hisobga olishi darkor. Bu pozitsiyani dalillar nazariyasi sohasida ishlaydigan ko’plab olimlar tasdiqlaydilar<sup>14</sup>.

Yuqorida fikrlari bayon etilgan olimlarning qarashlarini tahlil etadigan bo’lsak, guvoh immuniteti guvohning protsessual maqomiga ta’sir qiluvchi vosita ekanligini tushunishimiz mumkin. Guvoh daxlsizligining keng talqiniga amal qiluvchi olim protsessualistlarning pozitsiyasi eng maqbuli bo’lib, buning asosiy sababini guvohlar daxlsizligining mazmuni ikki jihatni qamrab olishi ya’ni bir tomondan, ayrim shaxslarni guvoh sifatida so’roq qilishni taqiqlash to’g’risida; boshqa tomondan, guvoh sifatida ko’rsatma bermaslik yoki ayrim savollarga javob berishdan bosh tortish huquqiga ega bo’lgan shaxslar doirasining qonundagi ta’rifidan kelib chiqqan holda.

Ta’kidlashimiz lozimki, immunitet tushunchasini irodani ifodalash xususiyatiga qarab mutlaq va nisbiy turlarga ajratish mumkin. Birinchisi, guvoh maqomiga ega bo’lgan shaxsni so’roq qilish qonuniy taqiqlanganligi sababli guvohning guvohlik berishdan bosh tortish huquqini o’z ichiga oladi (masalan, advokatlarning daxlsizligi).

Ikkinchisiga guvoh bo’lgan shaxsning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko’rsatuv berishdan bosh tortish huquqi (masalan, yaqin qarindoshlarning daxlsizligi) kiradi.

A.Y. Yepixin esa guvohlarni tasniflash uchun yana bir asosni taklif qiladi:

- burch bo’yicha daxlsizlikdan foydalanilgan guvohlar;
- o’z huquqi tufayli ko’rsatuv berishdan bosh tortgan guvohlar<sup>15</sup>.

Mazkur olimning fikriga ko’ra, guvohning daxlsizligi munosabatlari oilaviy, xizmat va davlat sirlari bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

Qayd etadigan bo’lsak, milliy qonuchiligimizda ham fuqarolik protsessida guvohning daxlsizlik huquqidan foydalanishi mumkin bo’lgan asoslar bevosita Fuqarolik protsessual kodeksida to’g’ridan-to’g’ri belgilanmagan. Biz Konstitutsiya

<sup>12</sup> Даев В.Г. Иммуниеты в уголовно-процессуальной деятельности // Известия вузов: Правоведение. 1992. № 3. С. 48–52

<sup>13</sup> Волосова Н.Ю. Уголовно-процессуальный институт свидетельского иммунитета: теория, законодательное регулирование и практика: автореф. дис. ... д-ра юрид. М., 2015. 62 с.

<sup>14</sup> Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko’maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog’liq ayrim masalalar. Yurisprudensiya/ Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal.// 4-son, 2023.

<sup>15</sup> Молчанов В. В. Служебный свидетельский иммунитет в гражданском судопроизводстве // Рос. Юстиция. 2006. № 4. 11 с.



hamda normativ huquqiy hujjatlar asosida qarindoshlar, advokat, diplomatik vakillar kabi shaxslarning daxlsizlik huquqi mavjudligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, guvohning daxlsizligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular rasmiy vazifalarni bajarishda ma'lum bir shaxs uchun maxsus himoya darajasini o'z ichiga oladi.

Birinchi, guvohlarning daxlsizligining huquqiy munosabatlarini ko'rib chiqsak, u huquqiy imtiyozlar toifasiga kiradi va uning muhim tarkibiy qismidir.

Ikkinchi, biz guvohlarning daxlsizligini tadqiq etgan holda mazkur immunitet qoidalarini xalqaro xorij tajribasini o'rgangan holda milly qonunchiligimizda aynan fuqarolik protsessida qo'llanishi lozim jihatlarni implementatsiya qilish muhimligini qayd etishimiz mumkin.

Uchinchi, diplomatik vakillar va konsullik mansabdor shaxslarining guvohlik daxlsizligi bevosita xalqaro hujjatlar va konvensiyalar asosida tavsiflanishini hamda konsullik mansabdor shaxslarining daxlsizlik chegaralari xalqaro talablarga ko'ra belgilanishini bayon etamiz.

Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, guvohning daxlsizligi sud oldida himoya yaratadi, manfaatdor guvohlarning ko'rsatmalari oldida imtiyozlar beradi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, guvoh o'z huquqlarini bilmasligi sababli guvohlarning daxlsizligi ko'pincha buzilishi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi.

3.Агаев Ф.А., Галузо В.Н. Иммунитеты в российском уголовном процессе. – М.: ТЕИС, 1998.

4.Даев В.Г. Иммунитеты в уголовно-процессуальной деятельности // Известия вузов: Правоведение. 1992. № 3.

5.Волосова Н.Ю. Уголовно-процессуальный институт свидетельского иммунитета: теория, законодательное регулирование и практика: автореф. дис. ... д-ра юрид. М., 2015.

6.Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog'liq ayrim masalalar. Yurisprudensiya/ Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal.// 4-son, 2023.

7.Молчанов В. В. Служебный свидетельский иммунитет в гражданском судопроизводстве // Рос. Юстиция. 2006.

**“HAMLET” BY WILLIAM SHAKESPEARE**

**Xalmuratova Fariza Yelmurad qizi**

*Student, Chirchik State Pedagogical University*

**Annotation:** *In this article, the example of Shakespeare's tragedy "Hamlet" is a tragedy characterization and artistic features of the genre are discussed.*

**Key words:** *dramaturgy, tragedy, image, situation, conflict, Shakespeare, Hamlet.*

We all know that the word tragedy comes from the Greek word "Tragoidia" which means "goat". because in ancient Greece, theater performers wore goat skins they wore clothes made of skin. Today, tragedy is literature in theater and literature appears as one of the genres. Tragedy leads to misfortune in modern drama The central problems of the work come to a sad end, just like an ancient drama The tragedy of the hero is used in relation to the works that end with the decline of the nation.

In many cases, moral weakness, psychological adaptation, and social pressure have an effect on this shows.

Shakespeare's tragedy is distinguished from other tragic works by its uniqueness. Shakespeare all elements characteristic of the work are involved in tragedies. Caused the tragedy

The hero is one of the most important elements of the tragedy. Tragic in the works of the writer the hero is basically one person and the hero can be a man or a woman.

A tragic hero must be the saddest person who has suffered an inevitable fate. Famous scholar Andrew Cecil Bradley said, "Shakespeare's tragedy is actually a story.

Such a story ends with suffering and disaster. "Shakespeare is tragic The important thing about the hero is that he is not an ordinary person. He is the king of the country or one of the prestigious and noble citizens of the country and a well-known person. For example Hamlet -

Prince of Denmark. He is intelligent, open-minded, handsome and thoughtful. Hero such an important person that his death caused all-out upheaval and disorder emits When Hamlet avenges his uncle for his father's death, he not only perhaps, he sees death for himself as well.

Shakespeare's tragedies depict the struggle between good and evil most of them are symbols of evil, with the domination of evil and the suppression of good is engaged in. According to Edward Dowden, a famous poet and literary critic of the 19th century according to Shakespeare, the tragedy is aimed at restoring human life and spirit is a tragedy. In other words, its theme is between good and evil in the world is a struggle. In Shakespeare's works, good never triumphed over evil.

The main characters of Shakespeare's tragedies are honest and good people, and they are the heroes of the work his difficulties and sufferings call us to sympathize with him.

Evil the actions of people make us angry with him. From the works of Shakespeare no matter how many years pass, it will never fall out of the hands and hearts of readers. It still hasn't lost its readers.

**REFERENCES:**

1. Shakespeare "Romeo and Juliet"-Tashkent: Literature and art named after Gafur Ghulam publishing house, 2001.
2. B. Jalilov. Issues of poetics of Uzbek dramaturgy, 1984.
3. Hotamov N, Sarimsakov B. Annotated Russian-Uzbek terms of literary studies dictionary, 1983]
4. Anikst A.A. Hamlet. Shakespeare collection / Ed. Aniksta AA and Stein AM: Nauka, 1961 year.
5. Belinsky V.G. Complete collection Sochi, Volume II, M.: Publishing House of the Academy of Sciences, USSR, 1953 year
6. History of foreign literature of the 17th century / Ed. Z.I. Plavskin. - M., 1987.
7. V. Shakespeare. Hamlet, Prince of Denmark. Translation from English. M. Lozinsky. M.: Publisher: AST Astrel, 2011.
8. Shvedov Yu. William Shakespeare. Research. M., 1975.

**MUSKAT YONG'OG'I YORDAMIDA SHAMPAN VINOSINI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASI****SH.X.Xaydarov***shuxrat\_xaydarov94@bk.ru***M.U.Ozodova***120-23MSM guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada vinolarni shampanlashtirishning barcha mavjud usullarining qiyosiy tavsifi berilgan va shampan ishlab chiqarish uchun vino materialini tayyorlash va nazorat qilishning eng samarali usuli bo'yicha ilmiy ishlanmalar keltirilgan. Bundan tashqari, "O'ynoqi muskat" shampan vinosi ishlab chiqarish uchun sharob materialini tayyorlashning fermentativ usuli ta'kidlangan. Shu maqsadda muskat yong'og'idan tayyorlangan ekstrakti ishlatilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muskat yong'og'i, vinomaterial, achitqi, quyqa, shampan, mezga, ferment, organoleptika*

1927 yilda dunyoga mashhur olim va vino ishlab chiqaruvchi M.A.Xovrenkoning O'zbekistonga kelishi zamonaviy vinochilikni tiklashda katta ijodiy ahamiyatga ega bo'ldi. Xovrenko va uning izdoshlari hamda ko'plab mashhur vino brendlarining hammualliflari, V.I.Kryukov, L.I.Tumanyants, A.A.Abdullaev, N.S.Sobirov, E.S.Burtsev, K.K.Mukumboev, N.Xazanovskiy rahbarligida S.Kats, S.V.Motalev, S.X.Gaydarov, E.M.Bueverova, A.I.Volodina, A.G.Olxovskiy, T.S.Soliev, X.S.Yusupov, A.N.Kornouxov, V.K.Glossev va boshqa mutaxassislar vinochilikning yuksak san'atini o'zlashtirishda kata hissa qo'shdilar.

Brendli vinolarni yaratishda erishilgan yutuqlar uchta asosiy komponentning muvaffaqiyatli kombinatsiyasi natijasidir. Ulardan birinchisi-vinochilik mahorati, ikkinchisi-bu joyning tuprog'i va iqlimining o'ziga xosligi va nihoyat, uchinchi-uzum navlarini qulay tanlash.

O'ynoqi muskat shampan sharobini ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratishning klassik texnologiyasidan boshlab, bizning davrimizning eng ilg'or texnologiyalari ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi, ularni qiyosiy taqqoslash, shuningdek, yuqori sifatli, past navli texnologiyalarni aniqlash va qo'llash, xarajatlar, yo'qotishlarni kamaytirish usullari.

O'ynoqi muskat vinolari 10% shakar va spirt 11% hajm nisbati bilan tayyorlanadi. Sharob tayyorlash mavsumida oq muskat uzumidan mistsella tayyorlanadi. Buning uchun muskat uzumining quyqasi eziladi va ozgina qovuriladi (3% shakargacha fermentlangan), keyin vinomaterial distillanib, tarkibidagi spirt 16% shajm nisbatida mezgadan ajratiladi. Vinomaterial tahlil qilib baholaniladi va shampan zavodiga yuboriladi.

Zavodda shampan vinosi materiallari bilan bir xil tarzda qayta ishlanadi. Turli xil muskat uzumining xushbo'yligini oshirish uchun laboratoriya sharoitida muskat

uzumining quyqasi 0,003% miqdorida pektolitik ferment preparati bilan ishlov berildi. Preparat bilan 370C haroratda 30-35 daqiqa davomida davriy aralashtirish yo'li bilan ishlov beriladi.

Muskat sharobini tejash uchun ular muskat uzumini o'rnini bosuvchi sifatida muskat yong'og'ini ishlatishga qaror qilishdi. Yong'oq ezilgan va bir millimetrli elakdan o'tgan. "Extra" spirti bilan 60% suvli eritmasi tayyorlandi va unga 5,10 hamda 15% miqdorda muskat yong'og'i kukuni qo'shildi. Aralashmalar 48 soat davomida suv hammomida 600C haroratda teskari o'rnatilgan muzlatgichga bog'langan kolbalarda saqlangan. Shundan keyin maydalangan muskat yong'og'i ekstrakti qoldiqlardan qog'ozli filtr orqali ajratildi.

Ekstraktning dozasi 5, 10, 15 va 20% ga o'rnatildi. Ekstrakt chiqarilgandan so'ng, har safar likyor tarkibidagi shakar miqdori donador shakar qo'shib 70% gacha oshirildi va konyak spirtining dozasini kamaytirish orqali alkogol miqdori kamaytirildi. Suyuqlikning sifati muskat yong'og'i lazzati organoleptik usul bilan tarzda aniqlandi.

"O'ynoqi muskat" shampän vinosini tayyorlash uchun asos sifatida xo'raki vino ishlatilgan. Shampän vinosi minus ikki darajaga qadar sovutildi va unga shunday miqdordagi ekstrakt qo'shildiki, tayyor mahsulot tarkibidagi shakar miqdori 10% ni tashkil etdi.

Shunday qilib olingan o'unoqi shampän sharobi biroz yashil rangga ega muskatning xushbo'y hidi, nordon-shirin ta'mli mahsulot yaratadi. Sharob tarkibidagi alkogol miqdori 10,8% hajm nisbatida, shakar miqdori – 9,8%, uchuvchan kislotalar – 0,46 g / dm<sup>3</sup> tashkil etdi. 50C haroratgacha sovutilgan shishadagi "O'ynoqi muskat" shampän vinosining bosim 3,5 atm tashkil etdi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini tartibga solish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6033, 2018 yil 12 yanvar.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vinochilik sohasini va alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3573, 2018 yil 28 fevral.

3.H.T. Salomov. Vinochilik sanoatida texnik kimyoviy nazorat. Toshkent, "Mehnat", 2004 y, 240 b.

4.H.T. Salomov "Mikrobiologiya asoslari ", Toshkent "Mehnat", 2002 y. 163 b.

5.X.T.Salomov. Новый способ сбраживания виноградных вин. Dissertatsiya na soiskaniya uchenoy stepeni qandidata tex.nauk. Tashkent, 1972 g.

6.Sh.X.Xaydarov. Magistrlik ishi: "Mahalliy o'simliklardan foyalanib yangi muskatli shampän vinosi texnologiyasini yaratish va uning biologik xavfsizligini o'rganish". Buxoro-2010. 71-bet.

7.M.Sharapova. "Uzumchilik sanoati" fanidan ma'ruzalar matni, 2006 y., 2-3 bet.

8.A.Fanensin. Obmen veshchestv i prevращenie energii v rastayaniyax. S- Peterburg. 1883 g. str. 606-680.

9.E.Salkovcki. Uber Zukerbulding und andere Fermentation in der Hefe I.Z. Phiziol. Chem. 13, 120, 1927 e.

10.O.Meerhof Ergebn.Phiziol. стр.39,10,1937 e.

11.O.Meerhof Y.Biol,Chem, стр.157,105, 1945 e.

12.V.Engelgard, I. Seynis. O prirode Xarden. Yongovskogo urovneniya brojeniya, bioximiya, t.12. Выр. 1s 121.

13. Xaydarov, Sh. X. (2023). Muskatli shampan vinosi uchun yarim tayyor mahsulotini tayyorlash texnologiyasi. Science and Education, 4(11), 161-167.

14. Shodiev, S. S. (2010). Intensifikatsiya protsessa teplovoy obrabotki kostochkovyx malosoderzhashix materialov s ispolzovaniem netradi sionnyx metodov podovda energii: disser. na sois. akadem. stepeni magistra.

15. Davlyatova, M. B., Shernazarova, D. S., & Rashidova, G. N. (2022). Studying the effect of plant extracts on the rheological properties of wheat flour. Science and Education, 3(12), 398-405.

15.<https://uzwine.uz>

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РУССКОГО И АНГЛИЙСКОГО  
ЯЗЫКОВ****Файзуллаева Феруза Алишер кизи***Магистрант, Самаркандский государственный институт иностранных  
языков***Муסיнова Зебо Турабовна***Доцент кафедры русского языка и литературы, Самаркандский  
государственный институт иностранных языков*

**Аннотация:** Работа посвящена лингвокультурологическому анализу русского и английского языков. В данной статье нами были рассмотрены понятие лингвокультурологии как научной дисциплины, отражение русской культуры и английской культуры на развитие их языков, а также их национальные языковые особенности на примере фразеологизмов.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, культура, народ, менталитет, сдержанность, фразеологизмы, язык.

Лингвокультурология – это постоянно развивающаяся научная дисциплина, где предметом её изучения является репрезентация в языке фактов культуры, своеобразным продуктом которой является так называемая лингвокультура.

Язык испокон веков считается зеркалом народной культуры, народной психологии, философии и во многих случаях единственный источник истории народа и его духа. Неразрывная связь языка и культуры интересовала ученых с давних времён, активное изучение данного вопроса, конструктивного свойства языка и его способность воздействовать на формирование народной культуры, психологии и творчества обнаруживали и вскрывали еще в XVIII веке и в начале XIX века такие ученые как И.Г. Гердер и В. фон Гумбольдт. Их идеи нашли свой живой отклик во многих славянских странах, в том числе и в России.

В лингвокультурологии по данным словаря Ю.С.Степанова для русской культуры и языка характерны такие «ключевые слова», означающие константы этноязыкового сознания как, мир, свои и чужие, Русь, родная земля, время, огонь, вода, хлеб, водка, страх, тоска, грех, печаль. По А.Вежбицкой это слова: душа, судьба, тоска. В то же время для английской культуры в качестве ключевых характеристик называют – сдержанность, закрытость и замкнутость. С целью понять, с чем связаны такие отличительные особенности, нами была подробно изучена данная тема и сделана попытка описать исследованное.

Английский народ представляет собой народ, сформировавшийся еще в средние века на острове «Великобритания» из племён фризов, англов, саксов, ютов и ассимилированного ими кельтского населения острова.

В. П. Шестаков в своей книге «Английский национальный характер и его восприятие в России» так же утверждает, что «Одна из самых отличительных черт англичан – постоянство и стабильность характера. Если наступит страшный суд или наводнение, англичанин останется невозмутимым англичанином».

На самом деле, трудно говорить о характере британцев, как трудно говорить о характере русских, китайцев или любого другого народа в целом. Сколько людей, столько и характеров. Однако какие-то наиболее типичные черты или нормы поведения, безусловно, отличают один народ от другого. У англичан такими обобщающими чертами являются стабильность, постоянство и трудолюбие, терпимость и невмешательство в чужие дела, консервативность и свободолюбие, замкнутость и индивидуализм, а в некоторых случаях гостеприимство и открытость. Рассмотрим данные особенности более подробно.

«В Англии особенно сильно отличаются друг от друга по складу характера северяне и южане. Северяне обычно склонны заявлять, что они более трудолюбивы, чем южане, и более упорны в работе. Иностранцы отмечают, что северяне более открыты и гостеприимны и с ними легче подружиться» [6, с. 292].

Закрытость, национальная особенность же британцев связана в первую очередь с системой их воспитания. Отличительная черта англичан – неприхотливость, что и является одной из черт строгого воспитания. Следовательно, показана английская сдержанность, стремление скрыть эмоции и сохранить лицо, что и связано «сохранить покой вокруг и внутри себя».

Однако именно прославленная сдержанность англичан часто воспринимается как холодность и безразличие.

Еще одной и очень известной чертой английского менталитета является, так называемый «understatement», то есть языковая сдержанность, недоговорённость и она выражается в лексических, синтаксических и интонационных особенностях коммуникации. Англичане в отличие от русских не склонны ставить в известность свои переживания и невзгоды, проблемы. О них англичане либо совсем не говорят, либо говорят полшутя и с улыбкой на лице. По словам зарубежного исследователя Дж.Микиша, «The English have no soul, they have the understatement instead» - У англичан нет души, вместо этого у них присутствует сдержанность.

Проявление данной особенности менталитета - «understatement», выражается в том, что англичане не будут никогда говорить слишком откровенно и категорично. Напротив, их речь – неопределенна и аморфна. Вместо прямых ответов да или нет, британцы предпочитают использовать дополнительные слова, которые делают их суждения не слишком резкими, например, quite awful, quite nice, a bit, a little, I am afraid, seem, certain.



На самом деле англичане редко говорят то, что думают, но это не повод обвинять их за это в неискренности. Часто причина такого поведения – терпимость к чужому мнению: «So many men, so many minds».

Менталитет русского народа очень сложен в определении. Это связано с тем, что под «русским» народом понимается весь «российский суперэтнос», возникший на основе восточнославянской цивилизации и православия и объединивший все этносы и конфессии Евразии.

Русский народ формировался на полиэтнической основе в результате межплеменного смешения, то есть сегодня под названием «русская нация» скрываются изначально славянские, финно-угорские и тюркские корни.

Славяне выступают в качестве исторического ядра русского менталитета. Следовательно, менталитет восточных славян явился основополагающим для развития национального характера современного русского человека. Среди основных особенностей славянского менталитета отмечаются: «любовь к свободе, выносливость, щедрость, гостеприимство (иногда до расточительства), склонность к раздорам среди соплеменников, милосердие, послушность и покорность».

Н. О. Лосский также приводит большое количество основополагающих черт русского менталитета. Прежде всего, он отмечает религиозность русского народа. Православие воспитало в русском народе духовность, всепрощающую любовь, отзывчивость, жертвенность, душевную доброту, жалость.

Кроме этого русскому человеку свойственно чувство мощного единения друг с другом. «Ширь русской земли и ширь русской души давили русскую энергию, открывая возможность движения в сторону экстенсивности. Эта ширь не требовала интенсивной энергии и интенсивной культуры», – отмечал Н. А. Бердяев. Отсюда и русская лень, беспечность, недостаток инициативы, слабо развитое чувство ответственности русских людей.

Доброта русского народа проявляется, прежде всего, в отсутствии злопамятности, т.е. русский человек не умеет ненавидеть другого человека по-настоящему. Данная черта русского менталитета выражается в том, что русские люди относятся к преступникам как к несчастным людям, жалеют их и хотят облегчить их участь. Вместе с тем Н. О. Лосский отмечает жестокость в русском характере. Причем, как отмечает исследователь, русский народ жесток не по своему характеру как таковому, а в связи с исторической судьбой всего народа: русскому человеку пришлось пережить много войн, покорить суровые пространства, не пригодные для жизни.

А. Вежбицкая выделяет три уникальных понятия русского менталитета, которые впоследствии были подтверждены и другими учеными. Этими тремя понятиями, в свою очередь, являются душа, судьба и тоска.

Исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод, что менталитет русского народа – довольно сложное и противоречивое явление. Приведенные выше качества русского человека являются главными структурными

компонентами русского менталитета. Мы также выделили ряд второстепенных компонентов национального характера русского человека, таких как коллективизм, человечность, душевность, стремление к социальному идеалу и лидерству, творческий потенциал, поспешность, односторонность мышления, крайности, отсутствие предрассудков и т.д.

С целью более глубокого изучения менталитета и её отражения в языке нами были выбраны фразеологические единицы поскольку, особые предпочтения и ценности того или иного социума, проявляющиеся в различных языковых источниках наблюдаются в фразеологических единицах, которые сохраняют, передают этнокультурные ценности, их значение для народа, национально-культурные особенности менталитета той или иной нации.

Фразеологические единицы, отражая в своей семантике длительный процесс развития культуры народа, фиксируют и передают из поколения в поколение культурные стереотипы, установки, эталоны. Фразеология удерживается в языке веками, репрезентируя культуру народа-носителя. По меткому замечанию А. В. Кунина, «фразеология – это сокровищница языка. Во фразеологизмах находит отражение история народа, своеобразие его культуры и быта».

Национально-культурная специфика фразеологизмов прослеживается на трех уровнях. Во-первых, комплексно, т.е. своим идиоматическим значением, всеми компонентами вместе, что составляет суть любой фразеологической единицы. Это позволяет носителю языка, который опирается на знание своей национальной культуры, правильно дешифровать представления, положенные в основу фразеологизма, а для иностранцев данное выражение может остаться непонятным. Например, «get on the high horse» – «держаться высокомерно». Эта устойчивая единица возникла в связи с обыкновением феодалов отбывать военную службу на лучших лошадях в качестве кавалеристов, смотревших свысока на пехотинцев-простолюдинов.

Во-вторых, национально-культурная специфика отражается расчленённо, т.е. элементами своего состава. Обычно так проявляются фоновые схемы тех фразеологизмов, стержневой компонент которых содержит экзотизм для иностранной аудитории. Например, «too much pudding will choke the dog». Это выражение связано с национальной кухней англичан.

В третьем случае фразеологизмы отражают народную культуру своими прототипами – свободными словосочетаниями, описывающими определенные обычаи, праздники, подробности быта и культуры, исторические обычаи в жизни народа и многое другое. Например, английская пословица «as a hog on ice» и русская «как корова на льду».

Таким образом, все вышеизложенное позволяет утверждать, что именно в фразеологизмах отражается весь накопленный народом опыт, его ценности, установки и идеалы. Фразеологизмы – это «межпоколенно воспроизводимые

знаки «языка» культуры, участвующие в трансляции ментальности народа – носителя языка»

Рассмотрим несколько примеров фразеологизмов русского и английского языков со словами, обозначающими животных.

Анализируя отобранные нами единицы, мы выяснили, что среди домашних животных самыми популярными являются собака и кошка. Эти животные встречаются во многих фразеологизмах. Так в русском языке собака ассоциируется как с положительными, так и с отрицательными чертами характера. К отрицательным можно отнести безделье, злость, угнетенное состояние, жадность: «собак гонять» – ничего не делать; «злой как собака»; «спустить собак» – разозлиться на кого-то (накричать); «на чужбине и собака тоскует» – грустить, скучать по дому; «обрадоваться, как собака блину» – быть жадным. К положительным можно отнести осторожность, ум, преданность: «кто-либо чуткий, как собака»; «собаку съесть» – быть знатоком в чем-либо; «собачья преданность» – очень преданный человек. В свою очередь в английском языке с собакой ассоциируются несколько другие качества, такие как трудолюбие: «to work like a dog» – много и усердно трудиться; неудача: «to make a dog's dinner of something» – не справиться с задачей, провалить дело; оптимизм: «every dog has his day» (каждый может быть успешным рано или поздно), «to be like a dog with two tails» (быть очень довольным), консервативность: «you can't teach an old dog new tricks» (нельзя научить старую собаку новым трюкам).

В русском языке с кошкой ассоциируются такие качества, как лень и осторожность: «ползет, как кошка на печку» – делать что-то очень медленно, лениво; «кто-либо осторожный, как кошка». Но есть и несколько других качеств, которые ассоциируются только с кошкой, это – ловкость («взбираться на что-то как кошка») и ненависть («любит, как кошка собаку» – ненавидеть кого-то). В английском языке кошка связывается с ленью, бездельем: «cat in gloves catches no mice» – ничего не делать; любопытство: «curiosity killed the cat». Так же в Англии нервный человек ассоциируется с кошкой – «as nervous as a cat».

Таким образом, изучение фразеологических оборотов со словами, обозначающими животных, способствует пониманию менталитета и национального характера носителей языка. Фразеологизмы несут собой дополнительный источник страноведческих знаний. Проанализировав фразеологические единицы с анималистическим компонентом, мы обнаружили, что в русском и английском языках имеются сходные ассоциации с образами животных, что не исключает своеобразия каждого из этих языков по отдельности.

**ЛИТЕРАТУРА:**

1. Бердяев, Н. А. О власти пространств над русской душой [Электронный ресурс] / Н. А. Бердяев // Судьба России. Опыты по психологии войны и национальности. – Москва, 1918. – С. 62 – 68.
2. Вежбицкая, А. Язык. Культура. Познание / А. Вежбицкая. – Москва: Русские словари, 1996. – 416 с.
3. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. пособие для ин-тов и фак. иностранных языков / А. В. Кунин. – Дубна: Феникс+, 2005. – 488 с.
4. Лисицина, Т. А. Русские паремии сакрального круга (фрагмент лингвокультурологии) / Т. А. Лисицина // Материалы Всероссийской научной конференции «Фразеология на рубеже веков: достижения, проблемы, перспективы» / Фразеология-2000 – Тула, 2000. – С. 93–98.
5. Лосский, Н. О. Условия абсолютного добра / Н. О. Лосский. – Москва: Издательство политической литературы, 1991. – 368 с.
6. Ощепкова, В. В. Язык и культура Великобритании, США, Канады, Австралии, Новой Зеландии: учебное пособие / В. В. Ощепкова. – Москва / Санкт-Петербург: ГЛОССА / КАРО, 2006. – 336 с.

**Komilova Mukarram Qobiljonovna**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti katta o'qituvchisi*

**Elmurodov Akbar Davron o'g'li**

**Abdig'apparov Yangiboy Sherali o'g'li**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari*

**Annotatsiya:** *Transport logistikasini rivojlantirish uchun eng birinchilarda transportlarga aniq va yaqin yullarni kursatib beruvchi dasturlar ishlab chiqish, yosh kadrlarni tayyorlash, yana bir muhim jihati yullarni tamirlash va shahr zonalarda tribandliklarni oldini olish uchun yullarni qaytadan mukammalroq qilib qurib qish kerak shunda transport logistikasi rivojlanadi va davlatimizga katta foyda va xalqni yaxshi yashashiga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *transport logistikasi, havo transporti, quruqlik transporti, suv transporti, tashqi tashish transporti, ichki tashish transport va yetkazib beruvchi transporti.*

**Abstract:** *In order to develop transport logistics, first of all, it is necessary to develop programs that show clear and close routes to transporters, to train young workers, and another important aspect is to repair roads and make them more perfect in order to prevent traffic jams in urban areas. So that transport logistics will develop and bring great benefits to our state and people helps age*

**Key words:** *Transport logistics, air transport, land transport, water transport, export transport, domestic transport and delivery transport.*

Transport logistikasi haqida gapirilganda hozirgi kunda jadal suratlada rivojlanib borayaotga logistikaning eng asosiy yo'nalishlaridan bir hisoblanadi. Transport logistikasini uchta yo'nalishga bo'linadi ya'ni mahsulot, tovar yoki resurslar, tayyor, yarim tayyor tovarlarni yetkazib berishda havo transporti, suv transporti va quruqlik transportlariga bo'linadi. Transport logistikasining o'ziga kelsak bu yo'nalish qadimdan bo'lgan faqat qadimda insonlar transport logistikasi deb atashmagan transport logistikasi atamasi yaqin bir ikki asrda hayotimizga kirib kelgan hisoblanadi. Transport logistikasidan qadimda eng birinchi quruqlik transportidan foydalanishgan ya'ni bundan asosan savdo karvonlari yuklarni bir joydan boshqa joyga olib borishda foydalanishganlar. Qadimda eng birinchi transport turi tuyalar, otlar hachrlar va boshqalar bo'lgan, keyinchalik aravalar yaratilib yuklarni tashishda ishlatilgan, Yuklarni tashishda faqat savdo va tijorat uchun emas, harbiy sohada ham qo'llanilgan, Qo'shinni vaqtida oziq-ovqat va dori-darmon bilan ta'minlash uchun keng foydalanilgan. Keyingi paydo bo'lgan turi suv transport hisoblanadi. Bu tur transporti odamlarga ko'proq yuklarni tashish uchun yordam berardi, lekin boshida odamlar bu yo'nalishdan keng foydalanmadilar, sababi suvda suzishga chidamli kemalar hali yaratilmaganligi va suv doimiy o'zgarib turishi, to'fonlar, kuchli yomg'irlar bo'lishi

yuklarni manzilga yetib borishiga to'sqinlik qilardi, keyinchalik odamlar to'lqinlarga chidamli kemalar yaratib dengida savdo-sotiqni rivojlantira boshlashdi. Suv transportining odamlarga qulayligi odamlarga tovarlar va mahsulotlarni ko'proq va tezroq yetkazib berishga yordam berardi, yana bir qulayligi mahsulotlarni tashish ancha arzonroq hisoblanadi. Suv transporti paydo bo'lishi bilan quruqlik yo'lidagi savdo yo'li dengizga ko'chdi va odamlar dengizda savdo-sotiqni boshlashdi. Quruqlikdagi savdo yo'llari o'z ahamiyatini sezilarli darajada kamayishiga olib keldi va suv yo'llarini ochilishi bilan insonlar yangi yerlarni kashf qila boshlashdi va yangidan yangi yerlarni aniqlab o'z hududlariga qo'shib ola boshlashdi. Insoniyat endilikda boshqa uzoq hududlardan mahsulotlarni olib kela boshlashdi, Endilikda insoniyat uchun vazni va hajmi jihatidan ancha og'ir bo'lgan va tashishga noqulay bo'lgan mahsulotlarni olib kela boshlashdilar.

Suv yo'lini kashf etilishi bilan ya'na bir narsa Amerikani kash qilinishi eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Amerikani kashf qilinishi bilan insoniyat tinch okeanini kashf qildi va yerni dumaloq shakldaligiga yana bir bor amin bo'ldilar. Keyinchalik hozirgi kungacha foydalanilgan transport yo'nalishi havo transporti hisoblanadi. Bu yo'nalishni paydo bo'lganiga hali unchalik ko'p bo'lmasada u o'z ta'sir doirasini yerning har qanday nuqtasiga mahsulotlarni yetkazib bera oladigan hisoblashdi, lekin havon transporti qolgan transport turlariga nisbatan ancha qimmatroq va ko'p hajmdagi yuklarni tashishga imkoniyat yaratib bermadi, shu sababli havo transporti keng rivojlanmadi lekin havo transporti mahsulotlarni biror joydan boshqa joyga yetkazib berishda qolgan transport yo'nalishlariga qaraganda ancha tezroq va sifatliroq yetkazib beradigan bo'ldi. Havo transportining yana bir yaxshi jihati suvdan va quruqlikdan borib bo'lmaydigan joylarga mahsulotlarni yetkazish va mahsulotlarni tashishda keng foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda havo transportidan qariyb barcha davlatlar foydalanmoqda, asosan odamlarni tashishda havo transportidan foydalanilmoqda. Havo transporti yaratilgandan keyin odamlar yerni ancha yuqoridan kuzatish va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun juda qulay bo'ldi, yana qutqaruv ishlarini amalga oshirishda tezlik bilan manzilga yetib borib qutqaruv amaliyotlarini bajarishda foydalanilmoqda. Havo transporti boshqa transport turlariga nisbatan anchagina qimmatroq hisoblanadi lekin hozirgi zamonda tezlik va aniqlikga e'tibor berilayotganligi sababli havo transporti rivojlanib bormoqda. Transport turlari ichida suv transporti mahsulotlarning tashilishining qariyb 65%ini o'z ichiga oldi, quruqlik transportda esa 24%, qolgan 11% havo transportiga to'g'ri keladi.

Transport logistikasi moddiy resurslar va mahsulotlarni bir nuqtadan boshqa nuqtaga tez va sifatli yetkazilish hisoblanadi. Mahsulotlarni yetkazib berishda transport logistikasining asosan ikki turi yani aralash transport yo'li va bir turdagi transport turidan foydalanish tushuniladi. Aralash transport turiga ikki yoki undan ortiq transport turidan foydalaniladi, bunga kema- avtomobil , samolyot-temiryo'l va temiryo'l- kema -samolyotni misol qilsak bo'ladi. Ikkinchi yo'li ya'ni mahsulotni bir nuqtadan boshqa nuqtaga yetkazib berishda faqat bir transport turidan foydalanish

Thus, along with Russian, English, Arabic, Spanish, Chinese and French languages, the most important treaties and agreements recognized as one of the six official languages of the UN were written. In many countries, the Russian language is studied.

Currently, English is the first language in the world in terms of distribution. Strengthening the position of the English language at the world level requires not only the provision of important resources, but also the improvement of relations between all state and public agencies and organizations designed to support and develop the English language and culture.



**LIST OF USED LITERATURE:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
4. Отабоева, М. Р. Чет тилини о'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL:
5. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 O'. Hoshimov,
6. I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti,
7. I. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent 2012.

MODERN ENGLISH LANGUAGE LEARNING METHODOLOGY AND. SOME  
WORK ON METHODS

Sabirova Nilufar Sharifboyevna

Avezova Shahlo Davronboyevna

*IIV Xorazm viloyati akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchilari*

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta imkoniyatlar hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar va metodlar xususida ba'zi mulohazalar yoritilishiga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *Chet tili, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar, CEFR, CD disklar, H.Palmer metodikas, "Spelling bee", "Creative Problem Solving", "Thinkers' meeting", "Merry Riddles"*

**Аннотация:** *В данной статье предпринята попытка осветить некоторые соображения относительно больших возможностей, предоставляемых иностранным языкам в Республике Узбекистан, и инновационных технологий и методов, необходимых для их изучения.*

**Ключевые слова:** *Иностранный язык, игра, инновационные технологии, технологические средства, методы, методы, CEFR, компакт-диск, H.Palmer metodikas, "Spelling bee", "Creative Problem Solving", "Thinkers' meeting", "Merry Riddles"*

**Annotation:** *In this article, an attempt was made to highlight some considerations regarding the great opportunities given to foreign languages in the Republic of Uzbekistan and the innovative technologies and methods necessary for learning them.*

**Key words:** *Foreign language, game, innovative technology, technological tools, methods, methods, CEFR, CDs, H.Palmer metodikas, "Spelling bee", "Creative Problem Solving", "Thinkers' meeting", "Merry Riddles"*

Now in every field of innovative technologies and modern science tools are being used. Therefore, in schools, it is necessary to use modern and innovative tools, methods, and various interactive games and practical exercises in the classroom system for students to learn English in depth and to improve their language skills.

The introduction of innovative technologies into the educational process, teaching foreign languages improvement of educational content and methods based on needs is inextricably linked. The main goal of teaching foreign languages is to form and develop the communicative culture of schoolchildren, foreign Azamat Akbarov, a professor and applied linguist, says that learning a foreign language is more important than having a "good impression" biography or a travel tool. It makes students smarter, faster decision makers and even better conversational skills increases. Psychological research also shows the benefits of learning and speaking foreign languages.

The task of the teacher is to create conditions for each student, to choose teaching methods that allow each student to demonstrate his activity and creative ability. In the 21st century, the main task of modern English language teaching is not only to provide extensive information, but also to provide students with modern methods, new information technologies and the Internet in order to increase their interest and passion for learning English.

teaching using modern pedagogical technologies such as resources.

Since speech is a means of communication, learning it is the general practical goal of educationers. However, today schoolchildren have a problem with speech in learning foreign languages. This is Professor Azamat Akbarov's opinion on this situation means: "Psychologists and educationalists admit that only if students are taught to overcome enough difficulties in the educational process, their thinking can be developed quickly.

Therefore, it is appropriate to use methods based on speech development in order to solve problems related to speech in students.

In schools, the use of the Harold Palmer method to improve students' language skills and solve their problems is described. The goal of this method is to master the English language freely, that is, to understand speech by listening, acquisition of speaking, reading and writing skills is considered Unfortunately, some of the language teaching methods used today are nothing more than a waste of students' time. I would like language teachers to pay more attention to conversational skills and competences when teaching a foreign language, rather than reading literature and analyzing grammar rules in detail. These classes focus on reading and writing, with little or no consistent focus on speaking and listening comprehension.

not given. From the moment the student starts learning the language, it is very important to speak continuously important. Therefore, it is necessary to give schoolchildren only new information during the lesson.

Solving problems and achieving high results, of course, in language learning

Identifying the difficulties is good. In the introduction of topics to the school program for the development of speech in students, "the student and his work should be done based on methodological criteria.

Each of the innovative methods mentioned above has its own advantages. In all such methods, cooperation between the teacher and the student, the active action of the student in the educational process is taken into account. The use of modern technologies in teaching English is also interesting for students causes an increase in their work and activities.

During the lesson, the teacher comes from the class system of the students In this case, he should send them interesting and educational videos in English, 3 or 5 minutes long. of these videos if the duration is long, it may bore some students or some of them may not understand the words.

For this reason, it is desirable that the duration of the videos be short. It is possible to draw students' attention to language learning by showing videos to

students in class. Effective results can be achieved by posting new topics, information, grammar rules, interesting information, poetry, vocabulary or videos about historical and famous people. In particular, students develop skills such as listening, listening comprehension, memorization, and speaking.

In conclusion, it should be said that in the 21st century, as the era itself demands innovations and renewal, it is not wrong to say that teaching the young generation through new, modern methods is also a demand of the era.

let's share To them, so that students and young people can become mature staff in the future already by helping them scientifically, spiritually and psychologically support is necessary. Developing the language skills of schoolchildren now will give very successful results in the future.

Using the aforementioned methods, innovative methods and modern information technologies to increase their interest in language learning, to attract them to language learning, to solve their problems, to think, to show their talents, and to improve their reading, speaking, listening comprehension and helps to develop skills such as writing and achieve great results.

As a result of using innovative methods, students' logical thinking skills develop, their speech becomes fluent, and they can answer quickly and correctly.

In conclusion, it should be said that in the 21st century, as the era itself demands innovations and renewal, it is not wrong to say that teaching the young generation through new, modern methods is also a demand of the era.

let's share To them, so that students and young people can become mature staff in the future already by helping them scientifically, spiritually and psychologically support is necessary.

#### **LIST OF USED LITERATURE:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3.Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

4.Отабоева, М. Р. Чет тилини о'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36-37. — URL:

5.Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 O'.Hoshimov,

6.I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti,

7 1.J.Jalolov “Chet tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2012.

JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING PEDAGOGIK QARASHLARI  
VOSITASIDA TARBIYALASH.

**Kadirova X.A**

*CHDPU Umumiy pedagogika kafedrası v.b.dotsenti.*

**Ochildiyeva Umida Abdurashid qizi**

**Samandarova Ruxshona Ulug'bek qizi**

*Pedagogika fakulteti I-kurs talabalari*

**Annatasiya:** *Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyandalarining millat erki, kelajagi, Turkiston mustaqilligi uchun, yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish olib brogan faoliyatlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *adabiyot, jadid, ziyo, ma'rifat, madarsa, maktab. ta'lim, tarbiya, gazeta, erk, taraqqiyot, panturkizm.*

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha «jadid» so'zidan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 – yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo'yadi:

Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar.

Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy mann qilinsin.

Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va shrq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrasa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.

Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.

Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.

Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'yidilar. Biroq, qadimistlar va amirning reaksiya siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgan sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905 yil to'ntarishi sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyorida katta er-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokozalar edi. Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyparvar ziyolilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907 yil Eron burjua to'ntarishi, 1908 yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Jadidchilik jamiyati to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o'zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga – proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo'lib tashlash tarafdori emas. Jadidlar hatto qadimchilar bilan

ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaati yo'lida baqamti ishlash, bugungi ifoda bilan aytganimizda turli siyosiy qarashlarga ega bo'lgan xalq qatlamlarining tinch-totuv yashashi va ishlashi g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Behbudiy ana shu «muttahid» front tuzish g'oyasini bayon qilar ekan, «ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak»<sup>2</sup>, deb yozgan. Jadidlarning bunday muttahid frontni tuzishga intilganlarining boisi turli sharoit bilan belgilangandi. Avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog'ida bo'lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko'p siquvda bo'lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo va sanoat burjuaziyasi hukmron bo'lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edilar. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr-mulohazalariga ko'ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur bo'lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutilish ham shunchalik kechiktirib bo'lmas vazifa edi.

Jadidlar 1906 yildayoq «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo'q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g'oyalar bilan paydo bo'lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so'z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma'nosi ham «yangi» demakdir».

Agar lo'nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:

Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.

Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovro'po qabiladagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish.

Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish.

Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish.

Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishiga qarshi kurash. Shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Asosiy talabalari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.



Xulosa o\_rnida shuni aytishimiz mumkinki jadidchilik harakatini, bu harakat namoyondalarining

hayotini, faoliyatini o\_rganish orqali biz bu mutafakkirlardan ibrat, na'muna olishimiz mumkin

olishimiz. Ya'ni bu mutafakkirlar xalqni savodli, o\_z haq-huquqlarini bilishlari, ilim olish orqali

jamiyat rivojiga o\_z hissalarini qo\_shishlari uchun jon fido qilgan mutafakkirlardir.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. «San'at» jurnali. «Jadidchilik qanday oqim» maqolasi. 1990 yil, 12-soni, 6-bet.
2. Pedagogika tarixi K.Xoshimov 2007 yil.
3. Pedagogika tarixi K.Xoshimov 2005 yil.

O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH VA  
SHAKLLANTIRISH

**Qaynarova Iqbol Valiyevna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Nurmuhammadova Gulnoza Muhiddin qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimini pedagogik mahorat orqali namoyon bo'lishi haqida tushunchalar beriladi. Pedagogning kasbiy kompetentligi asosiy kompetentlar tizimini takomillashtirish va shakllantirish haqida malumotlar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya, innovatsion, informatsion, kreativlik, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy faoliyat, kompetentlik tushunchasi.*

Kompetentlik- ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kasbiy kompetensiya-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda namoyon boladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

"Kompetentlik"-tushunchasi shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Kasbiy kompetensiya-bu bilim, mahorat va tajriba uzviyligi bo'lib, mutaxassis faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchi birinchidan o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta'lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan o'z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;

- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur angelaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;

ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llaydi.

Kaspiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha:

Ijtimoiy kompetentlik–ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirishi olish.

Maxsus kompetentlik–kasbiy bilimlarni o'zlashtirish asosida faoliyatni tashkil etish, kasbiy pedagogik vazifalarni hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirib borish bo'lib uning negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentliklar bo'lib ular o'zida quyidagicha ifodalanadi:

Psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida angelay olish va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik–pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni muvaffaqiyatli qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

Informatsion kompetentlik–axborot muhitida maqsadga muvofiq muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, muvaffaqiyatli foydalanish; Kreativ kompetentlik–pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining kreativlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik– pedagogik jarayonni takomillashtirish ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiq etish;

Shaxsiy kompetentlik–izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bolishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ahamiyatli hisoblanadi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. Ozini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini-o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogning professional kompetensiyasi pedagog jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi gan professionallikka ega bo'lish uchun pedagog o'zini-o'zi izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq. O'z-o'zini rivojlantirish shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi. O'zini o'zi rivojlantirishda pedagog "Individual rivojlanish dasturi" asosida pedagog mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lgan sifati bilan ko'nikma va malakani aniq xolis ifodalashi mumkin.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi–mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy amaliy xarakterdagi dasturdir.

Pedagog tomonidan ishlab chiqaradigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- pedagogik bilimlar
- psixologik bilimlar
- mutaxassislik bilimlar
- didaktik malakalar
- tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari
- ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatleri
- o'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar
- o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kompetentlik har bir shaxs va o'qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetentlikka ega o'qituvchilar faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanishadi va yuqori darajadagi kasbiy malaka , mahorat va iqtidorni namoyon eta olishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Ernazarova G.O., Qodirova X. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'l.-T.:CHDPU, 2021.-234 b
- 2.Ernazarova G.O., Islamov M.Sh. Pedagogik mahorat asoslari. O'quv qo'l.-T.:ChDPU, 2020.-224 b

THE THEME OF INNOCENCE OF SHORT STORY BY KATHERINE MANSFIELD.

Valiyeva Khilolabonu

*Tashkent region, chirchik state pedagogical institute, foreign language and literature.*

**Abstract:** *In this article both fascinating and heartbreaking themes are noted. Such as innocence, the position of wives, false feelings, childhood, and habits of old citizens. Among of them, value of individuals are attracted me to express it. Particularly, I try to convey completely the story with its a broad range of meanings and a moral code.*

**Key Words:** *Doll's House, short story, narrator, Simily, class consciousness, hardworking, innocence, theme , opportunity, chance , girls, parents, people, social clasness;*

### INTRODUCTION

In the time of rapid changes demands us to expand our skills more better in an interactive way. On that account. This story gave me an opportunity to explore it widely and distinctly. The short story which is named "The Doll's House" that has a good many. Experiences of life written by Katherine Mensfield. Katherine Mensfield was born on October 14 in 1888 in Wellington and died, because of tuberculosis, on January 9 in 1923 in France. She is mindful of writing short stories as a fame of New Zealand where a chance given her to occupy modernist movement. Her tales flied all around the world especially 25 countries managed to spread them for reading its bookish people. Mansfield published short stories and poetry under a variation of her name which revealed anxiety, sexuality, and existentialism. One of her stories that named " Prelude" describes us some of those memories. Her first formally published story is that name of " HER LITTLE FRIEND" . The stories "AT THE BAY" , " THE DOLL'S HOUSE" , " THE GARDEN PARTY" , and "A CUP OF TEA" of her printed in Switzerland. These stories and other of her described us what Katherine Mensfield had been a prolific short story writer during her worktime and human being. Katherine Mensfield was going to release the settings and period of New Zealand at that time.

#### Literature review

Plot: In Katherine Mensfield Mansfield's "The Doll's House", the three Burnell's Daughters and Kelves' girls are opposite one after another. Briefly via these girls' habit and conditions. The narrator is going to show us a bright pattern of property and poverty in some community. Burnells gave allowance their girls to call their friends to see a magnificent dollshouse except Lil and Else. But Kezia break her parents' announces and pick up those to watch well decorated doll's House. Despite that, They are delighted with spotting it. Innocent kid like Kezia didn't notice a variation between one and another while the elder people create difference in society.

#### METHODS AND DISCUSSION.

Now let's move forward with the analyze this story. The title of "Doll's House" widely known that Habits of grown ups who live in Burnell's family. Besides that Mansfield impact on the interaction among the society of her time. Particularly 20th century. The central concept of short story is isolating people in social classes. As They feel themselves a rich and perfect individual who wouldn't like to talk outcasts. Moreover, perceptive theme is small infants are innocent but they are adulteranted by

the grown ups and become cruel little by little. Gradually, The kids are assimilating about class distinction during school time. Subsequently, the short story demonstrates us false feelings of friendship. Because their school is depicted as a melting pot or mixing of class consciousness and Kelves ate the lowest part of it. Over and above Kezia is an owner of untouched soul of this story. Regardless of all rejections she brought those in order to indicate " THE DOLL'S HOUSE" . On account of it was more eye-catching than real house . It had bedrooms, living rooms, kitchen, chimneys, bedclothes, doll family and all colored ornamented and brilliant ones. It was unique and huge With one word it was worthy seeing . Afterwards, further necessary theme is the position of wives in the community. Wealthy citizens look down on Kelves's wife as a servant while she wasn't assistant. She was a washwoman who accompany this occupation so as to support her daughters, owing to her husband had attached in prison. With only a tie, we may comprehend Burnell's children was as if a copy of their parents. The story consists of structures. The exposition of it Once Mrs. Hay sent The Burnell's Daughters a doll's House and its site in girls' garden . Youngers consider that " The Doll's House" was a reflect of breathtaking and ideal House . It spread its scent of smell around the village the following day they arrived with excitement imagination in school to talk their peer.

At the Rising action of story Burnell's eldest and bossy daughter Isabella didn't give allowance her sisters to tell it. She told a burning event to her friends during lunch time in school. Among the friends that she chose two girls who had access to visit for seeing doll's House. They were Emmie Cole , Lena Logan. But two of siblings who girls of gaolbird didn't come near them Because they were downtrodden, lower class children. In spite of the consequences Kezia invite them to her garden. The Climax is cleared at the position of their visit to Kezia's courtyard. After hesitated visit Kelves girls managed to glance the doll's House. Suddenly the manager of Burnell's yard , who was aunt Beryl appeared to expel them from this place with vulgar language words. The falling action of it Those feel frightened and can't stick resting.

A huge fears tremendously influence them. Resolution of story gained the goals through them . Between of them Else was frightfully happy from this event. There are points that doll's House was an excellent among short stories of writer. It portrayed us a range of signals , symbols, and stylistic devices. The narrator gave clothes a signal of social circumstances. A fundamental symbol of story is Doll's House with its meanings. A lamp seen by Kezia was the soul of her and real life time. The epithet was.." an exquisite little amber lamp with a white globe. The Simily is depicted by narrator as the condition of Kezia and girl of washerwoman." It was like a little slab of toffee; "... And like two little little stray cats ; they followed across the courtyard , aunt Beryl broke those heart once more at this time Else looked like as a stone. The author is going to say mother is a loyalty of her gaolbird with the Simily of " Lil hudding alone like her mother. Anadiplosis: " .. Got something to tell you at playtime. Playtime come and Isabella was surrounded"; Repetition; " .. but perfect, perfect little house!" " .. it's true, it's true - it's true" she said. Anaphore; Watch! Watch! Watch me now!", " Now she could see that ones was in front of and one close behind. Now she could see that They were Kelves.

Oxymoron; " wild with joy . Metaphor; " Dead silence", " But now that she had frightened those little rats of Kelves . Metonymy; " The Kelves came nearer and beside them walked their shadows ; very long : With above stylistic devices Katherine

Mansfield displayed those who Lik and Else that They have no expectations, probability to live quietly in their situations.

**CONCLUSION.**

The text in modernist mode , with instant details and disorganized narrative voices . It is an extended metaphor for social class discrimination and welfare. The story centers three rich sisters and two poor sisters and the bottom line grown ups who related to upper class- previlage. Burnells family feel themselves as a rich people with its superior status. Through Kezia's breaking down of any class barrier that she can point all folks are equal in the world. Above mentioned noteworthy and a chain of events. I could get for myself an unchangeable and crucial summary. Life is extremely short by it is ability which can point of scenary of real life. All grown ups should respect others who haven't ample opportunity to draw their living. At the results they may have much more properties than before. I wish all creatures would be as Kezia. Supposing I had chace to change of the title of story, I would alter it " a code of behaviour". Live, Enjoy, Love, Relish, Take care, but not simply. You should live such that Individuals should save your forever memories in their soul. It is a rule of life.

**LIST OF USED LITERATURE:**

1. "THE DOLL'S HOUSE" BY KATHERINE MANSFIELD: 1922;
2. AFFECTIVE ENCOUNTER IN " THE DOLL'S HOUSE" ILLA DO DESTERRO: DECEMBER 2013;
3. NEW ZEALAND ELECTRONIC TEST COLLECTION 2016;
4. KATHERINE MANSFIELD. ' THE COLLECTED STORIES OF KATHERINE MANSFIELD" , LONDON: PENGUIN BOOKS, 2007.

**HOZIRGI GLOBALLASHUV JARAYONIDA AXBOROT XAVFSIZLIGA TAHDID VA  
UNING NAMOYON BO'LISHI**

**Mamatqobilov Mirolim Zafar o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari Yosh chegarachilar harbiy-akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada axborot tushunchasi, axborotlarning turlari, axborot xavfsizligiga tahdid va ularning turlari, axborot xavfsizligining ahamiyati kabi tushunchalar bayon etilgan. Axborot xavfsizligiga tahdidlar zamonaviy asoslar asosida talqin etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, axborotlarning turlari, xavfsizlik turlari, axborot xavfsizligi, axborot xavfsizligi turlari.*

**KIRISH VA DOLZARBLIGI**

XXI asr kishilik jamiyatining taraqqiyoti inson faoliyatining turli jabhalarida bevosita axborot ishlab chiqarish, uni iste'mol qilish va jamlash sur'atlarining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Sababi, axborot kishilik jamiyatining muhim resurslaridan hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotda axborot strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan hom-ashyo va energiya bilan tenglashtirilmoqda. Ma'lumki, dunyo miqyosida milliy mahsulotning 70 %ni axborot tizimlarida saqlanayotgan axborot ko'lami bilan bog'liqdir. Keyingi o'n yil ichida biz axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib, hayotning barcha jabhalariga, ayniqsa, ishlab chiqarishning turli sohalariga joriy etilishining guvohi bo'ldik. Rivojlangan davlatlarda ko'pchilik faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar ishlab chiqarish sohasida emas, balki u yoki bu darajada axborotni qayta ishlash bilan banddirlar. Bugungi kunda har bir xodim, mutaxassis, talaba o'z faoliyatini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaydi. Ular o'zlarining qimmatli vaqtlarini kompyuter oldida o'tkazib, mashaqqatli mehnat evaziga yaratilgan bebaho axborotlarini saqlashni "aqlli mashinalarga" ishonib, ularning yo'q qilinishi, buzilishi yoki o'g'irlanishi haqida o'ylamay, tavakkalchilikka yo'l qo'yadilar. Bunday qimmatli axborotlarni saqlash, ularning xavfsizligini ta'minlash uchun qoidalar, tamoyillar, vositalar, usullarni bilish va ustalik bilan joriy etish zarur bo'ladi. Nafaqat qimmatli axborotlar xavfsizligini ta'minlash, balki axborot tizimlari va ularning infrastrukturasi xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning butun hayoti axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan. Umuman olganda, inson bilimi ham to'plangan va tartiblangan axborotdir. Ammo inson miyasi nechog'li mukammal bo'lmasin, juda katta miqdordagi axborotning hammasini xotirasida saqlay olmaydi va avloddan-avlodga hech bir o'zgarishsiz uzatib bermaydi. Shu tariqa axborotlarni saqlab, eslab turadigan texnik vositalarga zaruriyat tug'ildi. Bundan tashqari, axborot har bir millatning boyligi hisoblanadi, shu sababli uni shunday saqlash lozimki, undan kerakli vaqtda kerakli hajmda foydalanish mumkin bo'lsin. Shundagina uning bahosi beqiyos bo'ladi. Aynan



shuning uchun kompyuterlar bugungi kun talabiga javob beradigan texnik vositalari va qurilmalaridan samarali foydalanishga harakat qiladi.

Prezidentimiz va hukumatimizning diqqat markazidagi masalalar qatoriga ta'lim jarayonini axborotlashtirish masalasi ham kirib, ushbu masalani hal etish bo'yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Bu qonun va qarorlarning asosini o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan va o'z kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanadigan yuqori malakali, axboriy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tashkil etadi.

Hech kimga sir emas, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan dorilomon zamonda jamiyatimiz taraqqiyoti xalq xo'jaligining har sohasiga yangidan-yangi texnologiyalarni, jumladan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilishni ta'qoza etmoqda. Oxirgi paytda kompyuter tizimlarining turli sohalarda va keng ko'lamda ishlatilishi hamda axborotlashtirishning jadal taraqqiy etishi axborot xavfsizligi muammosini keltirib chiqarmoqda. Xavfsizlik muammosi har qanday tizim uchun uning murakkabligi, tabiatidan qat'i nazar birlamchi vazifa hisoblanadi. Tez rivojlanib borayotgan kompyuter axborot texnologiyalari bizning kundalik xayotimizning barcha jabxalarida sezilarli o'zgarishlarni olib kirmoqda. Shu bilan birga axborotning baxosi ko'p xollarda uning o'zi joylashgan kompyuter tizimining baxosida bir necha yuz va ming barobarga oshib ketmokda.

Shuning uchun tamomila tabiiy xolda axborotni unga ruxsat etilmagan xolda kirishdan, qasddan uzgartirishdan, uni ug'irlashdan, yo'qotishdan va boshqa jinoiy xarakterlardan ximoya qilishga kuchli zarurat tug'iladi. Bugungi kunda axborot xavfsizligi jamiyatdagi bosh muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, keng ko'lamda axborotlarni jamlash, saqlash, qayta ishlash va uzatishning turli xil vositalari va usullaridan foydalanishdir. Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi axborotni himoyalovchi texnikani qo'llaydigan idoralar va ijro etuvchilar hamda himoya obyektlari majmuini ifodalaydi.

Bu tizim axborotni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy, tashkiliy boshqaruv va me'yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Shu bilan birga mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat xavfsizligini axborot sohasidagi ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga yo'naltirilgan.

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Birgina so'ngi o'n besh yillik ichida O'zbekistonimizning Mustaqil taraqqiyotini ko'ra olmayotgan diniy ekstremistik guruhlar beqarorlik urug'ini sepish, xalqimizni o'zi tanlagan yo'ldan ozdirish, chalg'itish uchun ne-ne kuchlarni ishga solmadilar, har qanday qabih vositalardan foydalandilar.

Quyidagi omillar ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi:

- mafkuraviy tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligini ochib berish;
- globallashuv jarayonlari va ma'naviy-axboriy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritish;
- mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini tahlil qilish;
- ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini yoritish;
- ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish omillarini tahlil qilish;
- fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyatini yoshlarga tushuntirish;
- jamiyatimizdagi turli ma'naviy-axboriy tahdidlarga qarshi kurashishda axborot olish madaniyatini shakllantirishdan iborat

### **O'RGANILISH DARAJASI**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimovning va O'zbekiston Respublikasi hozirgi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chiqishlarida va asarlarida ma'naviy tahdidlar, unga qarshi kurashish zaruriyati, bu boradagi vazifalar va axborot xavfsizligida milliy xavfsizlik masalalari, yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish, axborot olish erkinligini ta'minlash, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari keng tahlil qilingan. Ushbu O'zbekiston mustaqilligiga havf solayotgan ma'naviy tahdidlar va axborot sohasida milliy xavfsizlik masalalari S.Otamurtovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik"<sup>1</sup>, Sh.Umarov va F.Mulaydinovlarning "Axborot xavfsizligi"<sup>2</sup>, M.Quronovning "Milliy tarbiya", M.Lafasovning "Diniy ekstremizm: tarixi va mohiyati", X.Jumaniyozov, M.Sobirovlarning "Globallashuv asoslari", I.Karimov va N.Turgunovlarning "Axborot xavfsizligi asoslari" asarlarida yoritib berilgan.

### **TADQIQOT VA NATIJALARI**

Bugungi kunda har qanday taraqqiy etgan jamiyat hayotida axborotning ahamiyati uzluksiz ortib bormoqda. Uzoq o'tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo'lgan ma'lumotlar qat'iy sir tutilgan va himoyalangan. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish texnologiyalariga va mahsulotlarni sotishga tegishli axborot tovar ko'rinishiga ega bo'lib, ichki va tashqi bozorda unga bo'lgan talab ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari avtomatlashtirish va axborotni muhofaza qilish yo'nalishlarida muntazam mukammallashib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfidentsial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. "Axborotlashtirish to'g'risida", "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida" va boshqa qonunlar hamda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi

va amalga tatbiq etildi. Axborotni qanday yo'qotish mumkinligini va bu qanday oqibatlariga olib kelishini barcha ham tushunavermaydi. Misol uchun xakerlar Yahoo.com, Amazon.com kabi kompaniyalarga va hatto kosmik tadqiqot agentligi NASAgga katta zarar yetkazdilar. Xavfsizlik xizmati bozorining eng yirik nomoyondalaridan biri RSA Security, har qanday taxdidga qarshi chora borligi xususidagi o'ylamasdan qilgan bayonotidan bir necha kundan keyin, xujumga duchor bo'ldi.

Hozirda, xujumlar sonining doimo o'sishi hamda biznesning axborotdan foydalanish va almashishning elektron vositalariga bog'liqligi sharoitida mashina vaqtining yo'qolishiga olib keluvchi hatto ozgina xujumdan kelgan zarar juda katta raqamlar orqali hisoblanadi. Misol tariqasida keltirish mumkinki, faqat 2003- yilning birinchi choragida dunyo miqyosidagi yo'qotishlar 2002-yildagi barcha yo'qotishlar yig'indisining 50 %ini tashkil etgan, yoki bo'lmasa 2006-yilning o'zida Rossiya Federatsiyasida 14 mingdan ortiq kompyuter jinoyatchiligi holatlari qayd etilgan<sup>3</sup>. Bu statistik ma'lumotlarning o'zi mavzuning dolzarb ekanligiga yana bir dalildir.

Ravshanki, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborotlarni tezlikda almashish imkoniyati jamiyat hayotining barcha sohalarida va ayniqsa ishlab chiqarishda va boshqarishda yangi texnologiyalarning qo'llanilishi so'zsiz foydalidir. Ammo, sanoatning tezlikda rivojlanishi Yer ekologiyasiga taxdid sola boshladi, yadro fizikasi sohasidagi yutuqlar yadro urushi xavfini tug'dirdi. Axborotlashtirish ham jiddiy muammolar manbaiga aylanishi mumkin. Urushlar doimo bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan urushni olib borish butun bir fanga aylandi. Har qanday fanlagidek urushda o'zining tarixi, o'zining qoidasi, mashhur namoyondalari, o'zining metodologiyasi paydo bo'ldi. Zamonaviy urush g'oyasi juda ildamlab ketdi. Endi uning makoni - butun yer shari. Urush lokal qaroqchi xujumidan bir necha davlatlarni vayron qiluvchi global muammoga aylandi. Shunday ekan keling avallo axborot o'zi nima degan savolga javob beraylik.

Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisidir. Endi ushbu qoidadan kelib chiqqan holda axborotning turlar haqida so'z yuritsag.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda № 439-II-sonli "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunida axborot va uning turlari to'g'risida quyidagi ta'riflar keltirilgan:

